

RAYXON O'SIMLIGNING YER YUZIDA TARQALISHI HAMDA DORIVOR JIHLTLARI

Abdulxafizov X.A.

E-mail: xalilullohabdulxafizov@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti

Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda rayxon o'simligning yer yuzida tarqalishi hamda dorivor jihatlari, turlar soni to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Annotation: This thesis presents information about the spread of basil on the earth, its medicinal properties, and the number of species.

Kalit so'zlar: Abu Ali ibn Sino, bir yillik o'tlar, butalar, dorivor, evgenol, efir, gullar, Hindiston, isfaran, Janubiy Afrika, labguldoshlar, ocimum, rayhon.

Key words: Abu Ali ibn Sina, annual herbs, shrubs, medicinal, eugenol, ether, flowers, India, isfaran, South Africa, lavender, ocimum, basil.

Rayhon(Ocimum)-labguldoshlar oilasiga mansub, bir yillik dorivor, ziravor hamda manzarali xushbo'y hidli o'simlik. 60(ba'zi adabiyotlarda 150) turi tropik va subtropik mintaqalarda o'sadi. Evgenol rayhon (Ocimum gratissimum) turi Janubiy Afrika, Hindiston, Gruziya, Krasnodor o'lkasi janubida oz miqdorda bir yillik ekin sifatida ekib o'stiriladi. Issiqsevar yoryg'evar, qurg'oqchilikka chidamli o'simlik. Bargi yirik tuxumsimon, gullari oq yoki pushti, poya va novdalar uchida boshhoqsimon to'pgulga yig'ilgan. Yashil massasi tarkibida 0.3 foiz efir moyi mavjud. Efir moyinig 70 foizini kametika, oziq-ovqat sanoatida hamda tibbiyotda ishlatiladigan evgenol moddasi tashkil etadi. Janubiy Osiyodan kelib chiqqan Ocimum basilicum (oddiy rayhon) turi O'zbekistonda manzarali, oshko'k va ziravor ekin sifatida yetishtiriladi. Rayhon so'zi arab tilida „Vujudi xushbo'y o'simlik“ fors tilida esa „Isfaran“ ya'ni „Doimiy quvonch“ ma'nosini anglatadi. Bo'yi 25-40sm, gultojisi ikki labli, may-oktabr oylarida gullab, urug'laydi, ko'chat qilib ekiladi. Bargining rangi va o'simlik shakliga qarab oq rayhon, osh rayhon, sada rayhon, hoji rayhon kabi xillariga bo'linadi. Ularning 300 dan ortiq navi bor.

Ibn Sino qora rayhondan foydali foydalanilsa, ya'ni surtmasi ko'zning lo'qqilashiga foyda qilishi, yurakni kuchli qilishi, sutni ko'paytirishi, urug'i qiynalib siyishda foydali qilishini ko'rsatib o'tgan. Osh rayhon kishi ishtaxasiga baraka berib, ovqatni yaxshi hazm qiladi, a'zolarga singdirishga yordam beradi. Bundan tashqari u yo'talga, qizamiq asorati bo'lganlarga yengillik beradi. Bolgar xalq meditsinasida rayhon asosida tayyorlangan qaynoq damlama blan buyrak, qovuq, siydik yo'llari shamollashida, tumov, angna, bezgak xurujidan forug' etuvchi va

davolovchi omil sifatida foydalaniladi. Rayhon, sirka kislota yana ozroq tuz aralashmasining qaynatmasi tish og'rig'ini qoldiradi. Uning barglarining sharbati quloq yiringlashida foyda beradi. Bolgar meditsinasida davolash quyidagicha: ikki choy qoshiq maydalangan rayhon bir yoki ikki stakan qaynoq suvga damlanadi. Bu bemor uchun kunlik norma hisoblanadi. Uni gush, eczema va yaralarni tuzatishda tavsiya etiladi. Bu o'simlikning ajoyib xususiyatlaridan biri meva qoqilarni zararkunandalardan asrashda ancha samarali vosita hisoblanadi.



Maydalangan rayhonga oq kunjut moyidan aralashtirib surtsangiz, terida yuzaga kelgan muammolar va kuyishda yaxshi samara beradi. Rayhon gullari va sedana donalaridan tayyorlangan damlamani tana harorati ko'tarilganida iste'mol qiling. Bunday damlamadan shamollashning oldini oluvchi vosita sifatida ham foydalanish mumkin. Sutga maydalab solingan rayhon barglari tug'ruqdan keyingi holsizlikni engishga ko'maklashadi. Bosh og'rig'ini qoldirish uchun rayhondan tayyorlangan bo'tqani chakka va ensa sohasiga qo'yish tavsiya etiladi. Angina xastaligida 4 choy qoshiq maydalangan rayhonni 250 ml. suvda qaynatib, sovigach kuniga 2-3 mahal tomoqni chayish tavsiya etiladi. Tarkibidagi evginol moddasi tufayli bu ko'kat yallig'lanishga qarshi vosita sifatida mashhur. Yurak hastaligidan aziyat chekuvchilar, homiladorlar, qandli diabet va qon aylanish tizimida muammosi bor bemorlar rayhon iste'mol qilmaganlari ma'qul.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. <https://shifo.uz/article/rayhon-haqida>
2. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Rayhon_\(o%CA%BBsimlik\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Rayhon_(o%CA%BBsimlik))
3. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.*
4. 101 dardga davo rayhon - geografiya.uz
5. <http://geografiya.uz>